



*“Global oʻzgarishlar davrida yoshlar ongida
qadriyatli dunyoqarash shakllanishining milliy
va umuminsoniy muammolari”*

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya
materiallari*



OʻzMU - 105 yil

Toshkent - 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
FALSAFA VA MANTIQ KAFEDRASI –
FALSAFIY TADQIQOTLAR JAMOASI
BELORUS MILLIY FANLAR AKADEMIYASI QOSHIDAGI
BELARUS FALSAFA INSTITUTI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Global o‘zgarishlar davrida yoshlar ongida
qadriyatiy dunyoqarash shakllanishining milliy va
umuminsoniy muammolari”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya
materiallari**

(2023-yil 31-may)

Toshkent – 2023



1. Базаров Т.Ю. Интерес к ассесмент центру со стороны Заказчика. //Организационная психология. 2013. Т.3 № 4;
2. Башкин Е.Б. Эффективность стратегических ассесментсессий в развитии профессиональных компетенций специалиста// автореф.дисс.канд.психол.н., М., 2010;
3. Бурмистров С.В., Тихоновская С.А., Самыгин С.И. Ассесмент-центр как новая технология в системе управления персоналом //Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2017;
4. Геранюшкина Г.П. Особенности технологии Ассесмент-Центров // Сибирский психологический журнал. 2015. №21;
5. Ерофеев А.К. Центр оценки. Особенности метода и принципы стандартизации программ оценивания. //Организационная психология. 2013. Т.3 № 4;
6. Ерофеев А.К., Базаров Т.Ю. Авторские разработки моделей компетенций. //Организационная психология. 2014. Т.4 № 4.

<https://doi.org/10.34920/uzxdmk/2022/002>

GLOBALASHUV ASRIDA ZAMONAVIY YOSHLAR TAFAKKURINI YUKSALTIRISH OMILLARI

*Tog'ayev N.E.
(PhD) dotsent SamDU,
Azizova Laylo Sadriyevna.
katta o'qituvchi SamDU.*

Hozirgi globallashuv asrida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy sohadagi demokratik islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri bu yoshlarning yuksak ma'naviyatga erishuvini ta'minlash, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan hamda intellektual salohiyatli yoshlarni voyaga yetkazishdir. Shunday maqsadni ko'zlagan ko'pmillatli yurtimizda bir maqsad sari intilish, yoshlarning kelajagini o'ylash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yoshlarning o'zni va ularda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon har bir davrda, har bir mamlakat



ijtimoiy taraqqiyoti va ertangi kuni bilan uyg'unlashgan modernizatsiyani vujudga keltirib, unda yashayotgan millat, elat va xalq vakillarini bir maqsad sari birlashtirishga intiladi. Bu esa, o'z navbatida, har bir davlat vakillaridan o'z ona Vataniga bo'lgan muhabbat va orzu-niyatlarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab etadi. Bu haqda mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev "...mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohat va o'zgarishlar, keng ko'lamli dasturlar yagona va ulug' bir maqsadga qaratilgan. U ham bo'lsa, xalqimiz hayotini yanada obod va farovon qilish, farzandlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalashdan iborat" - deya bejiz ta'kidlamagan [1: 1].

Xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olayotgani, bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz. Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama to'g'ri tushunib, tanlagan taraqqiyot yo'limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo'llab-quvvatlayotgani davlatimiz oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

XXI asr boshqa davlatlar singari O'zbekistonning ham oldiga yechimini topishi zarur bo'lgan bir qator muammolarni qo'ydi. Bu muammolarning yechimi bevosita yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, yoshlar ertangi kunning yaratuvchilari sifatida o'zlarining milliy davlatchiligi tarixini chuqur anglab yetishi, o'z qalblarida vatanparvarlik tuyg'ularini barq urdirib yashashlari lozim. Shu bois yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda avvalombor vatanparvarlik muhim ekanligini hech kim unutmazligi lozim. Bu haqda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi" - deb ta'kidlab o'tadi [2: 5]. **АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИДА 2 РАҚАМДА КАРИМОВ**

Mamlakatimiz mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yoshlar tarbiyasiga, ularning milliy iftixori, milliy g'ururi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni mexr-oqibatli, saxovatli, Vatanga muhabbat, vatanparvarlik hamda



kelajakka ishonch bilan qarash ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bizdagi bunday milliy tuyg'ular bevosita ajdodlarimiz tomonidan yaratib qoldirilgan boy tarix va uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlari orqali kelajakka muhrlanib qoladi.

Bugungi kunda yurtimizda milliy qadriyatlarni tiklash, urf-odat va an'analarimizni asrab-avaylash, xususan, yosh avlod qalbi va ongiga Ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish, milliy g'oya targ'ibotini hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasida milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o'rin tutadi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlarimizga e'tibor kuchaydi. Yoshlarda milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlashga alohida ahamiyat berilayotganligi fikrlarimiz isbotidir.

Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda ona-yurtga muhabbat tuyg'ularini, uni himoya qilish, asrab-avaylashga qaratilgan intilishlarini kuchaytirishga yordam beradi. Milliy jihatdan o'zligini anglagan insongina davlati oldida turgan asosiy maqsadlari nimadan iboratligini tushunib, xalq oldidagi mas'uliyatini chuqur anglaydi. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilib, ma'naviy komillikka erishuvida asosiy va belgilovchi omil vazifasini o'taydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga erishish, diniy bag'rikenglik hamda millatlararo totuvlikni ta'minlash, ma'naviy-axloqiy tahdidlarga qarshi yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularda ajdodlarimiz merosiga nisbatan faxr va iftixor tuyg'ularini uyg'otish davr talabiga aylanmoqda.

Hozirgi paytda mamlakatimizda yoshlarning manfaatlarini yanada to'liq ta'minlashga yo'naltirilgan, ularning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishini kafolatlashga xizmat qiladigan iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, g'oyaviy-mafkuraviy tadbirlar tizimli tarzda amalga oshirilayotganligini alohida ta'kidlash zarur. Ayni paytda, davlat dasturlari doirasida yosh avlodni hayotga qat'iy e'tiqod va qarashlar ruhida, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalari bilan bog'liq kompleks chora-tadbirlar ham yuksak samara va sifat bilan ro'yobga chiqarilayotganini qayd etib o'tish lozim.

Xulosa qilib aytganda yoshlarga vatanparvarlik g'oyalari singdirib borilsa, yosh avlodning milliy tafakkuri, axloq-odobi hozirdan boshlab zamon talabi



asosida shakllanib boradi. Yoshlarning yangi jamiyat qurish va yangicha yashash tarziga asoslangan milliy tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish, intellektual salohiyatini yuksaltitirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlarga monand ravishda tariximiz, milliy o'zligimiz, an'ana va merosimiz ruhini, zamonaviy islohotlarning ma'naviy-mafkuraviy mohiyatini yoshlar ongiga singdiradigan va undagi vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik va sharqona axloq-odob, milliy madaniyat ruhida tarbiyalay oladigan madaniy taraqqiyotni rivojlantirish doimiy va uzluksiz jarayon bo'lib qolaveradi.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy tizimida tub o'zgarishlar, islohotlar bo'layotganligini his etish, istiqbolli hayotni barpo etishga astoydil harakatlar qilinayotganligini anglab borish asosida yoshlarning yangicha milliy tafakkurini shakllantirish jamiyatning oldidagi asosiy vazifalaridan biridir. Yoshlarning aqliy-intellektual qobiliyatlari va vatanparvarligi yuqoridagi talablarga javob beradigan darajada shakllangan bo'lsa, unda ularning ijtimoiy taraqqiyotda o'z o'rinlarini topa olishlari oson kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Ozod va obod vatanning barkamol farzandlari // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1-jild. T.: „O'zbekiston“, 2018. 412 b.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. –Toshkent: O'zbekiston, 1994. - 81 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Xalq so'zi. 2017 yil. 14 yanvar. №10.

<https://doi.org/10.34920/uzxdmk/2022/002>

GLOBALLASHUV JARAYONIDA IJTIMOIIY KAPITALNING O'RNI VA QADRIYATLARGA TA'SIRI

Uktamov N.I.

Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Insoniyat o'z tarixining eng og'ir va ziddiyatli davrlaridan biri – globallashuv davrini boshidan kechirmoqda. Bu davr jamiyat hayotining barcha sohalari: iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, axborot va hokazolarda



23.	Джураева Н.А.	<i>Ёшлар онгининг когнитив аппаратини шакллантиришдаги аксиологик йўналишларнинг ўрни</i>	100
24.	Дуланбоева О.А.	<i>Ғарб маданияти тарихида ижодкор статусининг трансформацияси</i>	105
25.	Илхамова Д.И.	<i>Болаларда ахлоқий қадриятларни шакллантиришнинг ижтимоий-психологик омиллари</i>	113
26.	Жалилов Б.Н.	<i>Глобаллашув жараёнларида ёшларнинг гоявий-мафкуравий хавфсизлик масалалари</i>	116
27.	Janonova S.B.	<i>Ta'lim va tarbiya integratsiyasi jarayonida yoshlarda kommunikativ kompetensiyani shakllantiruvchi omillar</i>	120
28.	Kurbanova S.A.	<i>The methodological significance of philosophy in the study of the formation of youth consciousness</i>	123
29.	Маҳкамов Қ.О.	<i>Авлодлараро ворисийлик ва маданий мерос</i>	127
30.	Мамадалиев М.М.	<i>Замонавий муҳитда ўзбек халқининг меҳнатсеварлик анъанасини ижтимоий-иқтисодий тарбия сифатида намоён бўлиши</i>	131
31.	Мавлянов А.А.	<i>Мантиқ фани ва унинг юқори малакали ёш кадрларни тарбиялашдаги ўрни</i>	137
32.	Мирсаидов М.	<i>Раҳбар маънавиятининг замонавий талаблари</i>	142
33.	Насимджанова М.М.	<i>Инкультурация жараёни миллий қадриятларни шакллантириш воситаси сифатида</i>	148
34.	Navruzov O.E.	<i>Globalashuv sharoitida yoshlarda ta'lim qadriyatlarini shakllantirishning ijtimoiy-madaniy jihatlar</i>	152
35.	Nurmatova U.J.	<i>Yoshlarda kognitiv tafakkurni rivojlantirishda mutolaaning ahamiyati</i>	156
36.	Отабаев И.	<i>Маданий мерос ва анъанавий қадриятларнинг трансформациялашув жараёнлари</i>	160
37.	Qundizaliyeva S.X.	<i>Media ta'lim sharoitida yoshlar tafakkuridagi transformatsiyalar</i>	165
38.	Рузибаев Д.	<i>Значение ассесмент-центра в формировании корпоративной культуры</i>	171
39.	Tog'ayev N.E., Azizova L.S.	<i>Globalashuv asrida zamonaviy yoshlar tafakkurini yuksaltirish omillari</i>	174
40.	Uktamov N.I.	<i>Globalashuv jarayonida ijtimoiy kapitalning o'rni va qadriyatlarga ta'siri</i>	177
41.	Xolmatov O.I.	<i>Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishida madaniy merosimizning tutgan o'rni</i>	182
42.	Rasulov A.G'.	<i>Yosh va keksa avlod o'rtasidagi ziddiyatlar tahlili</i>	186
43.	Xolmurodov G'.	<i>Yoshlarning ijtimoiy faolligi tushunchasining mohiyati va asosiy xususiyatlari</i>	190
44.	Худаяров Б.Х.	<i>Защита ребенка от негативной информации в контексте международного и национального права государств</i>	194
45.	Юлдашев Ф.А.	<i>Жамият ва ёшлар ҳаётини юксалтиришда фалсафий билимларнинг ўзига хос хусусиятлари</i>	199
46.	Fozilov G'.	<i>G'arb renessansi daholari</i>	203
47.	Нишонов С.Ж.	<i>Ҳусайн Воиз Кошифий ижтимоий қарашлари кесимида фанлар таснифи муаммолари</i>	209

